


IX. KICHIK TADBIRKORLIK


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ularning faoliyati uchun qulay muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 6 940 ta yangi kichik biznes subyektlari (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) tashkil etilib, faoliyat ko'rsatayotganlarning soni 38 953 taga yetdi.

2024- yil 1- yanvar holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 38 953 tani va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 79,3 %ni tashkil qildi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4 630 tasi (83,6 %) – Zangiota, 3 464 tasi – (79,4 %) Qibray, 2 781 tasi – (76,9 %) Toshkent tumanlari hamda 2 514 tasi – (90,4 %) Chirchiq, 2 099 tasi – (78,0 %) Angren shaharlari hissalariga to'g'ri keladi.




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %da




2023- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatimizda yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 6 940 tani tashkil qilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 141 taga yoki 102,1 %ga ko'paygan..


**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining yillar
kesimida soni (yanvar-dekabr oylarida, birlikda)**



**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining
yillar kesimida o'sish dinamikasi**
(yanvar-dekabr oylarida, %da)



**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**
2023- yil yanvar-dekabr oylarida (jamiga nisbatan %da)




Eng ko‘p kichik biznes subyektlari savdo (jami tashkil etilgan subyektlarning savdoda 18,4 %), axborot va aaloqa (15,2 %) sohalarida tashkil etilgan.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan:

- yalpi hududiy mahsulotda yalpi qo‘shilgan qiymati hajmi 50 670,5 mlrd. so‘mni tashkil qilib, ulushi 48,8 % (2022- yilda 46,6 %) tashkil qildi;
- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 25 110,2 mlrd. so‘mni, ulushi 23,7 % (2022- yilda 20,9 %) tashkil qildi;
- qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) hajmi 36 297,2 mlrd. so‘mni tashkil qilib, ulushi 88,5 % (2022- yilda 88,2 %) tashkil qildi;
- investitsiyalar hajmi 17 254,1 mlrd. so‘mni tashkil qilib, ulushi 38,8 % (2022- yilda 36,8 %) tashkil qildi;
- 11 372,6 mlrd. so‘mlik qurilish-pudrat ishlari bajarildi va ulushi 79,4 % (2022- yilda 74,3 %) tashkil qildi;
- avtomobil transporti yuk aylanmasi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1,9 %ga ko‘paygan (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 58,2 %), yo‘lovchi aylanmasi esa 1,7 %ga (umumiyoj yo‘lovchi aylanmasining 97,9 %) ko‘paydi;
- chakana tovar aylanmasi umumiyoj hajmining 87,1 %ini yoki 26 242,8 mlrd. so‘mini kichik biznes korxonalari shakllantirdi;
- xizmatlar umumiyoj hajmining 69,4 %i yoki 22 148,6 mlrd. so‘mi (o‘sish 111,0 %) kichik biznes subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi;
- 605,9 mln. AQSh dollar miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport hamda 2 061,3 mln. AQSh dollar miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

**Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar)
umumiylajmida kichik tadbirdorlik (biznes) ulushining o'zgarishi
(umumiylajmga nisbatan % hisobida)**



**Kichik tadbirdorlikning hududlar kesimida iqtisodiyotning
asosiy tarmoqlaridagi ulushi, %da**

	Sanoat	Qishloq xo'jaligi	Investitsiya	Qurilish	Savdo	Xizmat	Eksport	Import
Jami viloyat	23,7	88,5	38,8	79,4	87,1	69,4	32,5	53,5
<i>shaharlar:</i>								
Nurafshon	19,8	99,9	19,3	86,6	80,6	41,5	75,8	81,4
Olmaliq	2,3	99,7	2,2	20,6	88,1	72,3	3,3	8,8
Angren	29,1	84,9	80,4	97,1	75,8	63,2	47,2	50,2
Bekobod	2,3	99,9	7,5	72,5	87,7	78,5	4,0	2,5
Ohangaron	17,4	99,3	45,1	99,7	87,7	76,3	29,1	34,0
Chirchiq	39,3	99,9	37,2	89,9	76,9	65,7	21,6	74,7
Yangiyo'l	59,4	99,0	56,7	93,0	94,3	85,4	97,2	95,4
<i>tumanlar:</i>								
Oqqo'rg'on	28,7	85,1	93,6	91,2	98,2	80,3	31,5	80,7
Ohangaron	12,4	95,7	93,1	99,6	89,7	76,6	38,5	31,7
Bekobod	49,7	80,4	38,6	100,0	92,7	77,2	97,7	94,8
Bo'stonliq	17,6	95,5	46,4	82,6	75,4	58,2	31,7	30,9
Bo'ka	48,9	97,3	37,6	100,0	95,7	82,9	97,3	80,2
Quyi Chirchiq	80,9	63,9	84,3	99,9	96,3	58,9	98,9	100,0
Zangiota	93,6	90,8	56,2	99,1	86,7	63,3	88,2	98,6
Yuqori Chirchiq	82,9	96,0	87,4	84,7	87,9	77,9	90,8	81,8
Qibray	25,0	87,3	45,7	65,4	83,1	59,6	95,3	79,1
Parkent	89,0	99,7	78,5	100,0	95,4	82,3	78,7	99,3
Piskent	40,5	80,8	65,8	100,0	92,4	70,4	48,6	56,7
O'rta Chirchiq	51,0	78,3	80,9	93,5	97,3	75,5	74,5	86,6
Chinoz	59,7	96,6	48,1	100,0	91,6	57,7	65,0	89,0
Yangiyo'l	38,8	83,3	53,7	97,2	91,4	77,3	38,7	41,9
Toshkent	89,3	98,0	84,2	100,0	87,0	77,5	86,8	88,4